



Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)

2018 yil yanvar-mart

RAQAMLAR:


- 2019 yil yanvar-mart oylarida bozor xizmatlari hajmi 1482,4 mlrd.so'mni tashkil etdi.
- Moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati 170,8 % ni tashkil etdi.
- Savdo xizmatlari ulushi ko'rsatilgan umumiy xizmatlar hajmida 40,4 % ni tashkil etdi.
- Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 575,6 ming.so'mni o'sish sur'ati 109,4 % ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasining kengayishi va rivojlanishi milliy daromadlarning oshishini ta'minlovchi hamda aholi uchun munosib turmush darajasini ta'minlashning hal qiluvchi omilidir. Xizmatlarning yuqori sifati va xilma-xilligi xodimlarning mehnat samaradorligini oshiradi, iste'mol xarajatlarini kamaytiradi, vaqtni tejalishiga olib keladi hamda bo'sh vaqt samaradorligini oshiradi.

2019 yil yanvar-mart oylarida Surxondaryo viloyatida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 1482,4 mlrd.so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 111,9 %ni tashkil etdi.

Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmida eng katta hajm savdo xizmatlari (599,1 mlrd.so'm)ni tashkil etadi.

Ko'rsatilgan xizmatlar hajmining taqqoslanishi, mlrd.so'm




Shu bilan birga, savdo xizmatlar ihajmi (599,1mlrd.so'm),transport xizmatlari hajmi (247,0mlrd. so'm),moliyaviy xizmatlar (231,6 mlrd. so'm), Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi(78,1 mlrd. so'm) hamoshdi.


Bugungi kunda xizmat ko'rsatish sohasida 16,7 mingta korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda. Xizmat ko'rsatish sohasidagi korxonalar va tashkilotlarning jami korxonalar va tashkilotlar sonidagi ulushi 67,7% ni tashkil etdi.

2019 yil yanvar-mart oylarida korxonalar va tashkilotlar jami sonida xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi

(fermer va dehqon xo'jaliklarida ntashqari) % da




2019 yil yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning tarkibi,%



2019 yil yanvar-mart oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan eng yuqori o'sish sur'atlari Termiz shahrida (117,9 %), Denov (113,6%), Termiz (110,7%), Sarasiyo (106,6 %) va Qiziriq (106,3 %) tumanlarida qayd etildi.

2019 yil yanvar- mart oylarida shaxar va tumanlar bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



Yuqori bo'lmagan o'sish sur'atlari Muzrabod (102,9 %), Sho'rchi (105,1 %), Angor (103,1 %) Boysun (104,4%) va Jarqo'rg'on (105,0 %) tumanlarida kuzatildi.

2019 yil yanvar-mart oylarida shahar va tumanlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar hajmi


	Hajmi, mlrd.so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Surhondaryo viloyati	1482,4	111,9
Termiz sh	649,8	117,9
tumanlar:		
Oltinsoy	45,9	105,4
Angor	46,2	103,1
Boysun	36,7	104,4
Muzrabod	36,1	102,9
Denov	232,3	113,6
Jarqurgon	65,3	105,0
Qumqurgon	63,9	105,4
Qiziriq	45,2	106,3
Sariosiyo	63,9	106,6
Termiz	35,8	110,7
Uzun	46,7	104,8
Sherobod	55,8	105,6
Shurchi	58,7	105,1

Hududlar o'rtasida eng katta xizmatlar hajmi Termiz shahrida (649,8 mlrd.so'm), Denov tumaniga (232,3 mlrd.so'm) to'g'ri keladi.

Eng past hajmlar Termiz (35,8 mlrd.so'm).Muzrabod (36,1 mlrd.so'm), tumanlarida kuzatildi.

Hududlar o'rtasida Termiz shahri etakchi o'rinni egallaydi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida Termiz shahrining ulushi 43,8 % ni tashkil qiladi. Shu bilan birga, xizmatlar umumiy hajmida hududlar bo'yicha eng yuqor iulushlarni Denov tumani (15,7 %), Jarqurgon (4,4 %), Qumqurgon va Sariosiyo (4,3 %) tumanlari tashkil etadi.


2019 yil yanvar-mart oylarida shaxar va tumanlar bo'yci hajmi xizmatlar hajmida hududlarning ulushi (jami hajmga nisbatan), %



Hududlar o'rtasida eng past ulushlar Muzrabod, Termiz (2,4 %), Boysun (2,5 %), Uzun, Angor, Oltinsoy, Qiziriq (3,1 %) to'g'ri keladi.

2018 yil yanvar- mart oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 575,6 ming.so'mga ten gbo'ldi. O'sish sur'ati o'tgan yilga nisbatan 109,4% ni tashkil etdi.

2019 yil yanvar-mart oylarida shaxar va tumanlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlar



Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Termiz shahrida – 4472,4 ming.so'm qayd etildi. 2018 yil yanvar-mart oylariga nisbatan o'sish 116,8 % ni tashki letdi.


Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlarning eng past ko'rsatkichi Muzrabot tumanida – 260,3 ming.so'm kuzatildi, o'sish sur'ati 100,8 % ni tashkil etdi.

**2019 yil yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha xizmatlar ishlab chiqarish hajmi**

	Hajm mird so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xizmatlar - jami	1482,4	111,9
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	78,1	98,0
Moliyaviy xizmatlar	231,6	170,8
Transport xizmatlari	247,0	101,4
Shu jumladan:	236,5	100,9
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	53,0	105,8
Savdo xizmatlari	599,1	107,1
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	42,3	100,4
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	40,9	101,5
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	15,6	105,8
Ijara xizmatlari	40,2	120,1
Kompyuterlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	42,6	101,1
Shaxsiy xizmatlar	45,2	100,2
Me'morchilik sohasidagi xizmatlar	15,0	126,4
Boshqa xizmatlar	31,8	97,4

2019 yil yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha savdo xizmatlar (40,4 %), transport xizmatlari (16,7 %), moliyaviy xizmatlar (15,6 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (5,3 %), yashash va ovqatlanish xizmatlari(3,6%) bo'yicha yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

2019 yil yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



%

Taqqoslash uchun, 2019 yil yanvar-mart oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar -170,8 %, Me'morchilik sohasidagi-126.4 %, ijara xizmatlari(120,1%), Savdo xizmatlari o'sish sur'ati - 107,1 %, Yashash va ovqatlanish, sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar - 105,8 % ni tashkil etgan.

2019 yil yanvar-mart oylarida savdo xizmatlari hajmi 599,1 mlrd.so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 40,4 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan savdo xizmatlarining hajmi 99.6 mlrd.so'mga oshdi.

Savdo xizmatlarining eng katta hajmi Termiz sh. (198,7 mlrd.so'm), Denov (114,4 mlrd. so'm), Qumqo'rg'on (31,0 mlrd. so'm), Jarqo'rg'on (29,9 mlrd.so'm), Sho'rchi (29,0 mlrd. so'm), Sarasiya (28,8 mlrd. so'm), Termiz (18,3 mlrd. so'm) tumanrida qayd etildi.

2019 yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha savdo xizmatlarining hajmi, mlrd. so'm




Savdo xizmatlarining eng past ko'rsatkichi Muzrabot tumanida kuzatilmoqda. Ushbu hududda, savdo xizmatlari hajmi 15,9 mlrd. so'mni tashkil etdi. Aholining daromadlari darajasining oshishi bilan iste'mol talabi va savdo aylanmasi o'smoqda.

Surxondaryo viloyati transportining samarali ishlashi modernizatsiyalash, innovatsion rivojlanish yo'llariga o'tish va milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishi uchun sharoit yaratishda alohida o'rin tutadi.

Transport xizmatlari tarkibida etakchi o'rinni transportida ko'rsatilgan xizmatlar (16,7 %) egallaydi.

2019 yil yanvar-mart oylarida transport xizmatlarining umumiy hajmida hududlarning ulushi, %



Surxondaryo viloyati Xizmatlar sohasi

Statistikasi bo'limi

Mas'ul: P.Eshboeva

Tel: (71) 230-85-84